

## ASALARI OILALARIDA KUZ FASLIDA BAJARILADIGAN ISHLAR

**Jamolov Rapiqjon Qushmatovich**

FarDU o'qituvchisi

**Boboyev Baxromjon Kenjayevich**

FarDU q.x.f.n., dosenti

**Mo'ydinova Zuxraxon Nozimjon qizi**

FarDU talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7219637>

**Annotatsiya.** Asalarichilikda kuzda asalari oilasini kuchaytirib, ko'p sonli yosh asalarilarni ko'paytirishga harakat qilinadi. Kuchli asalari oilalarida yosh asalarilari ko'p bo'lsa asalari oilasi qishda yaxshi qishlab, nobud bo'lgan asalarilarining soni kam bo'ladi va ular qishlash vaqtida kam bezovtalanadi. Shuningdek, asalari oilasi qanchalik kuchli bo'lsa, qishlov davrida ozuqani shunchalik tejab iste'mol qiladi va orqa ichaklarida kam axlat to'playdi.

**Kalit so'zlar:** qishlov davri, asalari oilasi, ob-havo holati, kuchsiz olia, ozuqa miqdori, tuynukcha, tuynuk diametri, qand upasi, kandi ozuqa, bahorgi asal, gul chang, gul shira, qator orasi, qoziqcha, sirka kislota.

### РАБОТЫ, ПРОДЕЛАННЫЕ В ПЧЕЛИНЫХ СЕМЬЯХ ОСЕНЬЮ

**Аннотация.** В пчеловодстве осенью предпринимаются усилия по укреплению пчелиной семьи и выведению большого количества молодых пчел. Если в сильных пчелиных семьях много молодых пчел, пчелиная семья хорошо зимует зимой, число погибших пчел невелико, и они меньше беспокоятся во время зимовки. Кроме того, чем сильнее пчелиная семья, тем экономнее она потребляет корм в течение зимы и тем меньше мусора скапливается в ее задних кишках.

**Ключевые слова:** зимний период, пчелиная семья, погодные условия, слабая семья, количество корма, лунка, диаметр лунки, сахарная пудра, сахарная подкормка, весенний мед, цветочная пыль, цветочный нектар, междурядье, ворох, уксусная кислота.

### WORKS DONE IN THE FAMILIES OF BEES IN AUTUMN

**Abstract.** In beekeeping, in the fall, efforts are made to strengthen the bee family and breed a large number of young bees. If there are many young bees in strong bee colonies, the bee colony winters well in winter, the number of bees that die is small, and they are less disturbed during wintering. Also, the stronger the bee colony is, the more sparingly it consumes food during the winter and the less garbage accumulates in its hindguts.

**Keywords:** winter period, bee family, weather condition, weak colony, amount of feed, hole, hole diameter, sugar powder, sugar feed, spring honey, flower dust, flower nectar, row spacing, pile, acetic acid.

### KIRISH

Asalari oilalarida qish mavsumida asosan qishlov davrida asalarilarni qishlovini kuzatish, asalarilarning g'uj bo'lib yashashini hamda asalarilarning qishda oziqlantirish kabi ishlar bajariladi.

Qishlovga to'g'ri tayyorlangan asalari oilalari zax bosmaydigan joylarga, qoziqlar ustiga joylashtirilgan bo'lsa, asalarilar qish mavsumida mexnat zaxmat chekmaydi. Qishning birinchi yarmida asalarilar o'zlarini tinch tutadilar. Qishlash mavsumining ikkinchi

yarmida asalarilarning orqa ichaklarida to'plangan axlat ko'payib borishi hamda ramkalarda lichinkalar paydo bo'lishi bilan, asalarilar bezovtalanib boshlaydi. Bunda asalarilarning ozuqasi tekshiriladi, kuchsiz asalari oilalariga qo'shimcha issiq tutadigan yostiqlar qo'yiladi, uya teshikchalari kichraytiriladi, ona asalarisi yo'q oilalar ona asalarisi bor oilalarga qo'shib yuboriladi.

## **TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

Kuzda asalarilarni rivojlantirishda asalarichilik xo'jaliklarida kuz mavsumida quyidagi ishlar bajariladi:

1. Asalarilarni o'g'irlikka kirishi va uni olidini olish.
2. Kuzda arilarni rivojlantirish.
3. Yosh ona arili kichik oilalarni qishlashga tayyorlash.
4. Jamg'arilgan oziqning sifatini tekshirish.
5. Oilaning ichki hajmini qishlashga to'plash.

Har bir asalarichi asalari oilasini kuchaytirib, ko'p sonli yosh asalarilar ko'paytirishga harakat qilishi kerak. Kuchli yosh asalarilari ko'p bo'lgan asalari oilasi qishda yaxshi qishlab, o'lgan asalarilarining soni kam bo'ladi va ular qishlash vaqtida kam bezovtalanadi. Bundan tashqari, asalari oilasi qanchalik kuchli bo'lsa, oziqni shunchalik tejab iste'mol qiladi va orqa ichaklarida kam axlat to'playdi. Kuchsiz asalari oilalari oila ichidagi haroratni bir me'yorda ushlab turishga ham qiynaladi. Yosh asalarilar qishlash vaqtida uzoq yashashga qaramasdan, ularning tanasi «fiziologik» yosh bo'lib, yosh asalarilarga xos bo'lgan ishlarni bajarishga (lichinkalarni boqish, mumkatak incha qurish)ga qodir bo'ladi. Asalari oilalarida kuz mavsumida asosan asalarilarni rivojlantirish, yosh ona asalarili kichik oilalarni qishlashga tayyorlash, jamg'arilgan ozuqaning sifatini tekshirish, oilaning ichki hajmini qishlashga to'plash kabi ishlar bajarilishi kerak. Asalarilarni kuz faslida gullaydigan va gulchangi beradigan o'simliklarga ko'chirish tavsiya etiladi. Chunki kuz faslida to'plagan ozuqa asal va gulchangini asalarilar qishlov davrida oziqlanadi.

Agarda ob-havo ochiq bo'lib, kun issiq bo'lsa va tabiatda shira beradigan xech qanday o'simlik bo'lmasa, u holda asalarilar albatta kuchsiz, ona asalarisi bo'lmagan yoki uyasining asalari kiradigan tuyniklari kichraytirilmagan oilalarga asalarilar ko'plab kiradi va o'sha oilaning asal ozig'ini talab tashib ketadi. Asalarilarni boshqa uyaga kirishi oldi olinmasa, asalarizorda ko'p asalari oilalari nobud bo'lishi mumkin.

Asalarilarni boshqa uyaga kirishni oldini olish uchun quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

1. Asalarizorda kuchsiz va ona asalarisi bo'lmagan oilaning ichidagi ramkalar sonini asalarilar zich qoplab o'tiradigan bo'lguncha kamaytiriladi;
2. Hamma oilalarning asalari kiradigan tuynuklarining diametri tabiatda shira yo'q paytda 1 -1,5 sm gacha kichraytiriladi, agarda uyalarda qo'shimcha teshikchalar bo'lsa, ular butunlay bekitib qo'yiladi.
3. Tabiatda gul shira yo'q paytda oilalar faqat asalarilar ertalab jadal uchishidan oldin, kechqurun asalarilarning jadal uchishi to'xtagandan keyin tekshiriladi. Kunduz kunlari esa bu ishlar maxsus ko'chma chodir ostida bajariladi.
4. Asalarizorda ishlayotganingizda uya atrofida, uyaning tashqi tomonida asal tomgan joy (asal xidi) bo'lmasligi kerak. Shunday joy bo'lsa, darhol tozalanadi.

5. Jamg'arilgan ortiqcha ramkalar, kesilgan mumlar hamda asal xidi keladigan foydalanilgan asboblar, asalarilar kira olmaydigan yopiq xonalarda yoki biror idish ichida saqlanadi.

Har bir asalarichi kuzda asalari oilasini kuchaytirib, ko'p sonli yosh asalarilarni ko'paytirishga harakat qilishi kerak. Kuchli yosh asalarilari ko'p bo'lgan asalari oilasi qishda yaxshi qishlab, nobud bo'lgan asalarilarining soni kam bo'ladi va ular qishlash vaqtida kam bezovtalanadi. Bundan tashqari, asalari oilasi qanchalik kuchli bo'lsa, ozuqani shunchalik tejab iste'mol qiladi va orqa ichaklarida kam axlat to'playdi.

## TADQIQOT NATIJALARI

**Asalari uyalarini ko'chirish va joylashtirish uchun joy tayyorlash**-asalari oilasini ko'chirish asosan kechqurin amalga oshiriladi. Ko'chirish vaqtida ramkalar asalarilarni siqib qo'ymasligi va asalarilar nobud bo'lmasligi uchun har bir ramka mixlab qo'yiladi. Asalari oilasi kuzda tekis va atrofida erta bahorda gullab, gulchang hamda shira ajratuvchi o'simliklar bor joylarga joylashtiriladi, chunki asalarilar uzoq qish davomida o'z tanalarida yo'qotgan ozuqa moddalarni erta bahorda gullaydigan o'simlik gullaridan keltirilgan gulchang xisobiga to'ldiradilar. Asalari uyalarini asalarilar kiradigan teshigini quyosh chiqadigan tarafga qaratib joylashtiriladi. Joylashtirilgan asalarilar uyalarining orasi bir-biridan bir metr, qatorlarining orasi esa 3-4 metr bo'lishi kerak. Ular yerdan 40-45 sm balandlikda qoziqlar ustiga o'rnatiladi.

**Asalari oilalarida qish faslida bajariladigan ishlar**-Asalari oilalarida qish mavsumida asosan qishlov davrida asalarilarni qishlovini kuzatish, asalarilarning g'uj bo'lib yashashini hamda asalarilarning qishda oziqlantirish kabi ishlar bajariladi.

Qishlovga to'g'ri tayyorlangan asalarilar uyalarini zax bosmaydigan joylarga, qoziqlar ustiga joylashtirilgan bo'lsa, asalarilar qish mavsumida mexnat zaxmat chekmaydi. Qishning birinchi yarmida asalarilar o'zlarini tinch tutadilar. Qishlash mavsumining ikkinchi yarmida asalarilarning orqa ichaklarida to'plangan axlat ko'payib borishi hamda ramkalarda lichinkalar paydo bo'lishi bilan, asalarilar bezovtalana boshlaydi. Bunda asalarilarning ozuqasi tekshiriladi, kuchsiz asalarilar uyalariga qo'shimcha issiq tutadigan yostiqliklar qo'yiladi, uya teshikchalari kichraytiriladi, ona asalarilar yo'q oilalar ona asalarilar bor oilalarga qo'shib yuboriladi.

Asalarilarning ozuqasi tugab qolganda yoki ozuqaning sifatsizligidan bezovtalanganda qand upasini sifatli tog' asali bilan aralashtirilib hamirsimon ozuqa tayyorlanadi va qish faslining o'rtasida, erta bahorda antibiotikli ozuqa berish vaqtida beriladi. Hamirsimon ozuqaning afzalligi shundan iboratki, uni kunduzi tarqatsa ham bo'ladi, qo'shni uyalarining asalarilari boshqa asalarilar uyalariga kirmaydi. Bu ozuqa 0,5-1,0 kg li bo'laklar ko'rinishida, asalarilarning kuchiga qarab tayyorlanadi. Xar bitta oilaga qog'ozga o'rab, qog'ozning 5-6 joyidan teshib, asalarilar to'dasining ustiga 2-3 sm qalinlikda obi non ko'rinishida qo'yiladi yoki ko'zlarining o'lchami 3 x 3 mm bo'lgan sim to'r ustiga qo'ysa ham bo'ladi.

## MUHOKAMA

Har xil viloyatning iqlim sharoitlarini e'tiborga olib, hamirsimon ozuqani 3:1 nisbatda, ya'ni 3 kg qand upasiga 1 kg sifatli tog' asalidan qo'shib tayyorlanadi. Bu massa bir xil ko'rinishga ega bo'lgan, qo'lga yopishmaydigan aralashma hosil bo'lguncha yaxshilab aralashtiriladi. Bundan tashqari, xar 10 kg qand upasiga 200 ml suv hamda 70-80% li

sirka kislotasidan 3 gramm qo'shiladi. Shunday tayyorlangan ozuqani asalarilar inchalariga qo'yib, qayta ishlamasdan to'g'ridan-to'g'ri iste'mol qiladilar. O'lchab olingan tog' asali suv hammomida 50-55°S gacha isitiladi, asal suyulib, uning tarkibidagi shakar zarrachalari to'liq eriguncha qoldiriladi. Suyultirilgan asalga o'lchangan suv hamda sirka kislotasi qo'shiladi. Tayor bo'lgan xamirsimon (kandi) ozuqasini oila kuchiga qarab 500-700 grammgacha romka elka qismiga yoyib yopinchiq bilan yopilib qo'yiladi. Bu ozuqani asalari oilalari 5-7 kungacha bemalol istemol qiladilar. Kuzatuv natijalariga ko'ra qishlov davrida asalari oilalari o'rtacha bir oyda 600-700 gramm ozuqa istemol sariflaydilar.

## XULOSA

**Xulosa qilib aytganda,** Asalari oilalarida qish mavsumida asosan qishlov davrida asalarilarni qishlovini kuzatish, asalarilarning g'uj bo'lib yashashini hamda asalarilarning qishda oziqlantirish kabi ishlar bajariladi. Har bir asalarichi asalari oilasini kuchaytirib, ko'p sonli yosh asalarilar ko'paytirishga harakat qilishi kerak. Kuchli yosh asalarilari ko'p bo'lgan asalari oilasi qishda yaxshi qishlab, o'lgan asalarilarining soni kam bo'ladi va ular qishlash vaqtida kam bezovtalanadi. Bundan tashqari, asalari oilasi qanchalik kuchli bo'lsa, oziqni shunchalik tejab iste'mol qiladi va orqa ichaklarida kam axlat to'playdi.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017 yil 16 oktyabrdagi «Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 3327 sonli qarori. Qishloq hayoti gazetasi, 2017 yil 17 oktyabr soni.
2. Аветисян Г.А., Черевко. Ю.А. Пчеловодство. - М.: Академия, 2001. – 320 с.
3. Аветисян, Г.А. Разведение и содержание пчёл. – М.: Колос, 1983. – 271 с.
4. Балиашвили Л.И., Пичкова Л., Стурца Н., Самхарадзе Н. Медосбор с плодовых культур. Журнал Пчеловодство. – Москва, 2003. - № 8. - С. 29.
5. Ботиров Х.Ф., Хамидов Б.Х. Пчелы на зимующих медоносах. Журнал Пчеловодство. - Москва, 1991. - № 10. – С. 14-15.
6. Гюльмагомедова Ш.А., Казбеков Б.И., Алмайгаджиев Г.К., Закиров Н.Г. Пасеки в яблоневых садах. Ж. «Пчеловодство». – Москва, 2006. -№9. - С. 20-23.
7. Крахотин Н.Ф. Естественные корма и их заменители для пчел. Сб. «Технология кормления сельскохозяйственных животных». - Ташкент, 1987. - С. 13-28.
8. Исамухаммедов А. И, Никадамбаев Х.К. Асаларичиликни ривожлантириш асослари. – Тошкент: «Шарк», 2013.
9. Қахрамонов Б.А., Сафарова Ф.Э., Исамухаммедов С.Ш., Донаев Х.А., Эргашев Х.Б. Асаларичилик асослари. – Тошкент, 2021.
10. Тўраев О.С. Каперс ж. «Пчеловодство». 1986. - №5. - С. 25.
11. Бобоев, Бахромжон Кенжаевич, Фаёзиддин Бахриддинович Бахриддинов, and Ботир Сайфиддинович Уроков. "МУСТАҲҚАМ ОЗУҚА БАЗАСИНИ ЯРАТИШ–ЧОРВАЧИЛИК СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ГАРОВИДИР." (2022): 137-140.
12. Тўраев О.С. Асалари шохобчаларини ташкил этиш. “Ўзбекистон кишлок хўжалиги” журнали. - Тошкент, 2005. - № 4. – С. 30.
13. Бобоев, Бахромжон Кенжаевич, Фаёзиддин Бахриддинович Бахриддинов, and Ботир Сайфиддинович Уроков. "ЮҚОРИ САМАРАЛИ ГИДРОПОНИК ТЕХНОЛОГИЯСИ

АСОСИДА ЧОРВА ОЗУҚАСИНИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ УСКУНАЛАРИ ВА ОЗИҚЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ." (2022): 128-132.

14. Бобоев, Баҳромжон Кенжаевич, Фаёзиддин Баҳриддинович Баҳриддинов, and Ботир Сайфиддинович Уроков. "ЧОРВАЧИЛИКНИ ЯНГИ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ." (2022): 133-136.